

AKSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA ULARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI**Abduxalikov Muxammadxamid G'anisher o'g'li***Andijon davlat texnika instituti "Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv" fakulteti**bank ishi va audit yo'nalishi 4- bosqich talabasi E-mail:**abduxoliqovmuxammadxamid@gmail.com Tel: +998931853875*

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada aksiyalarning mazmun mohiyati, ularning turlari va funksiyalari haqida batafsil ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Aksiya, aksiyadorlik jamiyati, dividend, imtiyozli aksiya, oddiy aksiya, nominal qiymat, bozor narxi, fond bozori, sarmoyador, kurs qiymati.*

Abstract: *This scientific article provides detailed information about the essence of shares, their types, and their functions.*

Keywords: *Stock, joint-stock company, dividend, preferred stock, common stock, nominal value, market price, stock market, investor, exchange rate.*

Аннотация: *В данной научной статье представлена подробная информация о сущности акций, их видах и функциях*

Ключевые слова: *Акции, акционерное общество, дивиденд, привилегированные акции, обыкновенные акции, номинальная стоимость, рыночная цена, фондовый рынок, инвестор, валютный курс.*

Aksiya (fransuz tilidagi action so'zidan olingan) — bu egasiga aksiyadorlik jamiyatining foydasidan dividend ko'rinishida daromad olish, jamiyatni boshqarishda ishtirok etish hamda jamiyat tugatilgach qoladigan mol-mulkning bir qismini olish huquqini beruvchi, muddatsiz, egasining nomiga rasmiylashtirilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz hisoblanadi.

Avvalo, aksiya — amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog'oz bo'lib, uni chiqargan aksiyadorlik jamiyati faoliyat yuritayotgan davr mobaynida muomalada bo'ladi. Aksiya egasi esa, jamiyat tugatilganda uning mulki bo'linish jarayonida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

Aksiyalar orqali olinadigan daromad dividend deb ataladi. Odatda, dividend miqdori aksiyadorlik jamiyatining yillik foydasiga bog'liq bo'ladi. Agar kompaniya yil yakunida yuqori daromadga erishsa, u holda ko'proq dividend to'lash imkoniyati paydo bo'ladi, aks holda esa dividend miqdori kamayadi yoki umuman to'lanmasligi mumkin. Shunga qaramay, ba'zi istisno holatlar mavjud bo'lib, bu holatlar asosan imtiyozli aksiyalarga tegishli bo'ladi.

Aksiyalar, odatda kredit vositasi bo'lgan va kredit munosabatlarini ifodalovchi boshqa qimmatli qog'ozlar — masalan, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, depozit sertifikatlar yoki veksellardan farqli ravishda, mulkiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Aksiya egasi esa aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish orqali aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

Aksiyada ko'rsatilgan pul miqdori nominal qiymat deb ataladi. Bu qiymat aksiya sarmoyadorga birinchi bor sotilgandan keyin fond bozoridagi kelgusidagi narx o'zgarishlariga katta ta'sir ko'rsatmaydi. U faqatgina aksiyaning ulushdagi hissasini ifodalovchi axborot vazifasini bajaradi.

Ko'plab mamlakatlarda, ayniqsa aksiyadorlik mulki ustun bo'lgan AQSH kabi davlatlarda, aksiyalar ko'pincha nominal qiymat ko'rsatilmagan holda chiqariladi. Bunday hollarda faqat kompaniyaning ustav kapitali ma'lum miqdordagi ulushlarga bo'lingani qayd etiladi.

Ba'zi iqtisodchilar esa aksiya narxi uni xarid qilishga tayyor bo'lgan odam qancha to'lasa, shuncha bo'ladi, deb hisoblashadi. Shunga qaramay, ko'plab mamlakatlarda aksiyalar hali ham nominal qiymat bilan chiqariladi. Nominal qiymatning aksiyalarga belgilanishi fond bozori hozirgi kunda rivojlanayotgan O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega.

Birinchi navbatda, nominal qiymat qimmatli qog'oz egasiga faqat majburiyat sifatida emas, balki ma'lum bir miqdordagi mulkiy huquq sifatida ta'sir qiladi.

Shuningdek, aksiyalarning nominal qiymati aksiyadorlik jamiyatining ustav sarmoyasini shakllantiradi. Aksiyalarni nominal qiymatsiz chiqarish, albatta, hisoblashda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin edi.

Shuningdek, aksiyalarni ikkilamchi bozorda sotishda nominal va kurs qiymati o'rtasidagi farq potentsial sarmoyadorlarga kompaniyaning moliyaviy holati haqida ba'zi xulosalar chiqarishga yordam beradi, bu esa qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha qaror qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Turli davlatlarda aksiyalar uchun belgilangan minimal nominal qiymatlar farq qiladi. Aksiyaning bozor narxi esa aksiya kursi deb ataladi. Bu narx aksiyaning qiymatini aniqlashda asosiy o'lchov sifatida xizmat qiladi. Aksiyalar kursi – bu kapitalga tenglashtirilgan dividend bo'lib, u pul sarmoyasining miqdoriga mos keladi.

O'zbekiston hududida chiqariladigan aksiyalar quyidagi kategoriyalarga ajratiladi
Ochiq va yopiq aksiyalar

Ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari erkin muomalaga chiqariladi va keyinchalik boshqa aksiyadorlarning roziligisiz qo'llanma o'zgarishi mumkin. Bunga qarama-qarshi ravishda, yopiq aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari birlamchi joylashtirish paytida oldindan belgilangan sarmoyadorlar orasida taqsimlanadi va faqat kompaniyaning umumiy yig'ilishi tasdig'i bilan boshqa shaxslarga o'tishi mumkin.

Oddiy aksiyalar

Oddiy aksiyalar egasiga aksiyadorlar yig'ilishida ovoz berish huquqini beradi. Bu turdagi aksiyalar bo'yicha dividend miqdori kompaniyaning yil davomida erishgan moliyaviy natijalariga bog'liq bo'lib, oldindan kafolatlanmaydi. Oddiy aksiyalar egalari ko'proq xavfni o'z zimmasiga olganliklari sababli, ular uchun belgilangan dividend darajasi odatda yuqoriroq bo'ladi.

Imtiyozli aksiyalar

Imtiyozli aksiyalar egasiga aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish yoki kompaniya boshqaruvida ishtirok etish huquqini bermaydi.

Ularning asosiy imtiyozi shundaki, ular jamiyatning moliyaviy natijalaridan qat'i nazar, oldindan belgilangan daromadni olish imkoniyatiga ega.

Shuningdek, jamiyat tugatilganda, ular aksiyalarining qiymatini boshqa aksiyadorlarga nisbatan birinchi bo'lib olish huquqiga ega bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Moliya bozori: Darslik / J.R. Zaynalov, E.N. Xodjayev, B.SH. Xusanov, N.X. Ruzibaeva va boshq. T.: «Iqtisod-Moliya», 2020. -- 316 b.

2. Shoxa'zamiy Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. Darslik.T.: Fan va texnologiya, 2012. 444 b.

3. Moliya bozori. Sh.Sh.Shoha'zamiy , K.Ismoilov , Sh.Q.Fozilchayev, J.I.Karimqulov. T.: «ILM ZIYO», 2014. 232 b.